Ona yurting-oltin beshiging

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan | *№ 35 (66316) 2001 yil 31 avgust, juma* | *Sotuvda erkin narxda*

MUSTAQILLIGIMIZ BOQIY BO'LSIN!

Yurtimizda to'yu-tantana. Qayga boqmang, bayram nafasi kezib yuribdi. Ko'chalar, xiyobonlar, qo'yingchi, har bir maskan bayramona libosda. Shu oz fursatda qo'lga kiritgan yutuqlarimiz haqida «so'zlovchi» rango-rang suratlar qalbimizga ko'tarinkilik baxsh etadi. Bugun O'zbekistonimiz o'z mustaqilligining 10 yilligini tantana qilyapti. Buni qaran-ki, bundan 10 yil avval tug'ilgan chaqaloq ham bu kun 10 yoshini qarshilamoqda...

Biz bugun tinchlik, ozodlik nashidasini surib, kamol topyapmiz. Zero, bugun eng katta e'tiboru g'amxo'rliklar yurtimiz kelajagi bo'lmish biz yosh avlodga qaratilgan. O'ylaymanki, biz ham bunday g'amxo'rliklarga javoban Yurtboshimiz orzulagandek ilmli, bilimli, sog'lom va zukko o'g'il-qizlar bo'lib kamol topishimiz, ularning orzu-umidlarini, bizga bo'lgan ishonchlarini oqlashimiz lozim.

Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tmoqchiman. Afsuski, oramizda Vatan tushunchasini hali to'la anglab yetmaydiganlar ham bor.

Aziz tengdoshlarim, keling ona Vatanimizni, uning mustaqilligini ko'z qorachig'idek asraylik. Uning kuch -qudratini yanada mustahkamlashga o'z ulushimizni qo'shaylik. Ota-bobolarimiz orzulagan Mustaqilligimizning umri boqiy bo'lsin!

Shahlo MUTALOVA,
O'zMU talabasi.

TENGDOSHIMSAN, ISTIQLOL!

Mustaqil O'zbekistonim o'zining o'n yilligini nishonlayotgan yilda men ham o'n yoshga to'ldim. Bu men uchun katta baxtdir. Doimo qutlug' to'yga to'yyona bilan kelishadi. Men ham qatordan qolmay ilk bor bosmadan chiqqan she'riy kitobimni Vatanimning o'n yillik shodiyonasiga bag'ishladim. Kitobdan Yurtboshimizning biz yoshlarga ko'rsatayotgan g'amxo'rligi, kattayu - kichikning Vatan ravnaqi uchun yonib yashayotganlaridan ilhomlanib yozgan she'rlarim o'rin olgan.

O'zbekistonda bo'layotgan har bir yaxshi ishlarni biz o'quvchilar ham kuzatib borayapmiz. Shu yurtda yashayotgan barcha insonlar Vatanimizning tinch va gullab-yashnashi uchun harakat qilayapti. Chunki xalq tinchligi va farovonligi uchun barcha birdek mas'uldir.

Prezidentimiz biz yoshlarga avvalo kuchli bilim egasi bo'ling, deyaptilar. Men ham puxta ilm olishga intilmoqdaman. Kelajakda o'z bilim va ijodimni shu kamtarin xalqimning tinchligi, uning ravnaqi uchun sarflayman.

Mustaqil deb atalgan yurtda,
Surayapman erk nashidasin.
Yurt jamoli chiroy ochmoqda,
Osmonlari tinch hamda sokin.

Nargiz JUMAYEVA,
Toshkent shahar,
Sirg'ali tumanidagi
322-maktabning
5- sinf o'quvchisi.

O'ZBEKISTON FAXRIM MENING

Belorussiyadan xat

Assalomu alaykum aziz va qadrdon do'stlarim.

Mening ismim Ruslan, Belorussiya respublikasida tug'ilganman. Yetti yoshga to'lganimda biz Toshkentga ko'chib keldik. Mirzo Ulug'bek tumanidagi 27-maktabda 4 yil tahsil oldim. Dadamning kasbi arxitektor. O'tgan yili bizni yana Belorussiyaga taklif qilishdi. 5- sinfni o'sha yerda davom ettirdim. Belorussiya Chernobil zonasi hisoblangani uchun ham u yerdagi bolalarni Italiya, Gollandiya, Angliya, Germaniya kabi yirik davlatlar o'z otalig'iga olgan. Salomatliklarini tiklashlari, boshqa davlatlarga borib havo almashtirib kelishlari uchun sharoit yaratishadi. Biz o'qigan maktabni Italiyadan kelgan xonim va janoblar o'z otalig'iga olishgan. Tez-tez maktabimizga kelib, sovg'a-salomlar ulashishadi, oromgohlarda dam olishimizni uyushtirib berishadi.

Belorussiya juda chiroyli, qalin o'rmonlarga boy yurt. Har qadamda olmaxonlar, quyonlarni uchratish mumkin. Maymunjon va qo'ziqorinlar, chiroyli gullar ko'p. Lekin meva-chevalari serob bo'lsa ham, biznikidek shirin emas. Hozirgina quyosh charaqlab turgan bo'lsa, bir zumda yomg'ir yog'ib, jala quyib yuboradi. Yoshlarimiz tarbiyasi, odobi orasida ham kattagina farq bor. O'zlaridan kattalarga gap qaytarish, transport vositalarida keksalarga joy bermaslik belorussiyalik bolalar uchun oddiy bir hol.

...Bir kuni onam bilan transportda ketayotgandik. Oddiy kiyingan bir qishloq ayoli: «Siz o'zbekistonliksiz-a»,- deb so'rab qoldi. Bizdan tasdiq ma'nosidagi javobni olgach, hayajon bilan gapini davom ettirdi: «Sizlarga juda havasimiz keladi. Omadingiz bor ekan, Yurtboshingiz Islom Karimov aqlli va dono kishi. Shuning uchun yurtingiz tinch va obod», - dedi. Men bu so'zdan juda faxrlanib ketdim. Chunki o'zgalar havas bilan boqadigan shunday ajib diyor - O'zbekiston mening Vatanim, ona yurtim. Bu yurtning xalqi mehrli, quyoshining tafti ham o'zgacha. Bog'lari bolga boy, farzandlari baxtiyor. Katta-yu kichigi Yurtboshimizni hurmat bilan tilga oladi. Zero, Yurtboshisini hurmat qilgan yurt tinch va farovon bo'ladi.

Belorussiyaliklar farzandlariga shaftoli, anor, xurmo kabi mevalarni donalab xarid qilib olib berishadi. Qovun, anjir, behi kabi mevalarni hatto tatib ko'rmagan bolalar ham bor. Chunki, bunday mevalar u yerlarda o'smaydi, bahosi juda qimmat...

Men Belorussiyani juda yaxshi ko'raman, har qalay kindik qonim to'kilgan yurtim. U yerda mening do'stlarim ko'p. Lekin men o'zbekman va bundan faxrlanaman.

Aziz do'stlarim, biz haqiqatdan ham juda baxtlimiz. Olloh nazar solgan yurtning farzandlarimiz, Yurtboshimizning dilbandlarimiz. Mustaqilligimizga, tinchligimizga, baxtimizga, Prezident bobomizga ko'z tegmasin ilohim.

Ruslan MIRZAYEV.

MUSTAQILLIGIMIZ ABADIY BO'LSIN

Yaqinda O'zbekiston Badiiy akademiyasida «Xalq xotirasi oldida bosh egamiz» deb nomlangan ko'rgazma tashkil etildi. Unga tarixiy suratlar, kichik haykalchalar qo'yildi. Ko'plab shoiru yozuvchilar, ishtiroki ko'rgazmaga yanada fayz kiritdi. Sevimli shoiramiz Halima Xudoyberdiyevaning «bugungi kun bolalari eng baxtlidir. Ularning baxti uchun ota-bobolarimiz kurashdilar. Endi hech qachon farzandlarimiz boshiga qora kunlar tushmasin. Doimo bugungidek baxtiyor bo'lsinlar», degan gaplari barchani to'lqinlantirib yubordi. Shundan so'ng ko'rgazmaga surati qo'yilgan Nosir Saidiyning qizlari Ra'noxon opa Ashurbekova so'z oldilar:

-Boshimizdan ne-ne kunlar o'tdi. U kunlarni eslasam ko'zlarimda yosh qalqiydi. Rahmatli otam xalq komissariati boshlig'ining o'rinbosari edilar. Ular qamalganlaridan so'ng oilamizdan halovat ketdi. O'sha vaqtda men 1- sinfda o'qirdim. Bir kuni o'qituvchimiz sinfdoshlarim oldida meni maktabdan haydab yubordi. Shundan so'ng maktabga bormay qo'ydim. Dastlab opam bilan birgalashib tramvay tozalab, kun ko'rdik. Keyinchalik 45 yil davomida tramvay haydadim. Har qadamda «Xalq dushmanining qizi»degan gapni eshitardim...

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng otamning nomi oqlandi. Biz ham erkin nafas ola boshladik.

Iloyo yoshlarimiz biz ko'rgan yomon kunlarni ko'rishmasin, Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin, - dedilar Ra'no opa.

Ma'suda IRISNAZAROVA.

O'ZBEGIM

Tarixingda ne-ne shoirlar o'tgan,
Seni alqab, qancha g'azal, she'r bitgan,
Seni ozod ko'ray, deya jon tikkan,
Fitrat, Cho'lpon, Qodiriysan o'zbegim.

Tabobatning ko'plab sirlarin topgan,
«Ming bir shifo» nomli kitob yaratgan,
Tabobati keng jahonga asqotgan,
Ibn Sino qavmi sensan, o'zbegim.

Mustaqil yurtimsan, go'yoki jannat,
Yoshu qari dilida yashar muhabbat,
Hatto xoinga ham qilar muruvvat,
Sahovatda o'zing tanho o'zbegim.

Nargiza XAMIDOVA,
Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi
Beruniy nomli 36- o'rta maktabning
7- «B» sinf o'quvchisi.

AQLNI CHARXLAYDI

Sinfimiz bank ta'limiga ixtisoslashgan. Biz bank sohasiga oid atamalar, ish yuritishlarni o'rganamiz. Xususan, iqtisod fani chuqurlashtirilib o'qitiladi. Ustozim Gulnora opa Nurillayeva maslahatlari bilan «Iqtisodiyotdan saboqlar» sirtqi maktab tanlovida ishtirok etdim. Bu kabi tanlovlar va viktorinalar bizdek o'quvchilarga juda qo'l keladi. Aqlni charxlab, bilimni peshlaydi.

Gulnora MAJIDOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi shahridagi
34- o'rta maktabning
10-sinf o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI

O'QISAM DEYMAN

To'g'risini aytsam, maktub yozishga rosa ikkilandim. Biroq o'zga choram yo'q. Tengdoshlarimning maslahatlari menga asqotishiga aminman. Yoshim 18 da. Otam o'qituvchi, oyim laborant bo'lib ishlaydilar. Mening ikki nafar singlim va ikkita ukam bor. 9- sinfni bitirib, 3 oy tikuvchilik kursida o'qidim. Bichish-tikish ishlarini yaxshigina uddalay olyapman. Lekin, orzuim aktrisa bo'lish. Oynai jahonda berilayotgan seriallar, kinolardagi qizlarga o'xshagan taniqli aktrisa bo'lsam deyman. Hatto bilimimni sinab, san'at oliygohlarida o'qisam, deyman. Biroq ota-onam mening o'qishimga qarshi. Tahririyat xodimlari, men kabi orzulari buyuk qizlarga nima deb maslahat berasiz? Tengdoshlarim qanday fikrda?

Buvrayxon ESHONQULOVA,
Jizzax viloyati, Baxmal tumani,
Mo'g'ol qishlog'i.

Tahririyatdan:

Singlim Buvrayxon. Aksariyat qishloq qizlari sizdek san'atkor bo'lishni niyat qilishadi. Ehtimol, aktrisalik oson ishdek ko'rinar. Balki sizlarni ularning go'zalligi o'ziga maftun qilayotgandir. Ulardek bo'lishga intilishingiz bejiz emasdir. Biroq, har kasbning o'z mashaqqatlari mavjud. Atrof muhitni yorib chiqish uchun juda kuchli iste'dod egasi bo'lish lozim. Agar iste'dodingiz bo'lsa, maktab, mahalla, tuman markazidagi madaniyat saroyida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok eting. Mahoratingizni namoyon qiling. Astalik bilan yuqoriga harakat qiling. Iste'dod bo'lmasa, o'rta mi'yona san'atkor bo'lgandan ko'ra to'kis hunarmand bo'lgan afzal. Mana, tikuvchilikni o'rganibsiz. Kelajakda katta chevar bo'lganingiz ma'qul, bizningcha.

KENG DAVRA

Avvaliga dugonam Sevara bilan yozgan maqolalarimizni faqatgina tuman miqyosida chop etiladigan «Oqdaryo ovozi» gazetasiga jo'natar edik. Chop etilgan namunalarimiz bilan faxrlanardik. Keyin «Sinfdosh» jurnaliga maktub yo'lladik. Uning «Tanishmoqchiman» rukni ostida maqolamiz e'lon qilinganidan so'ng bizga respublikamizning turli burchaklaridan xat kela boshladi. Juda ko'p do'stlar orttirdik. Bugun men turli viloyatlardagi do'stlarimni «Tong yulduzi» gazetasi orqali Mustaqilligimizning 10 yilligi va Bilimlar kuni bilan muborakbod etmoqchiman. Kelajak poydevori - biz ekanmiz, kelinglar zuvalasi pishiq va puxta g'isht-qolip bo'lmish bilimimiz o'tkir va chuqur bo'lishiga harakat qilaylik.

Sadoqat ISROILOVA,
Samarqand viloyati,
Oqdaryo tumanidagi
23-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

FUTBOL

Sport bilan shug'ullangan bola sog'lom, baquvvat o'sadi. Sportning bir qancha turlari bor. Masalan, futbol. Futbol ilk bor Angliyada paydo bo'lgan. Futbol so'zi inglizcha bo'lib «oyoq to'pi» degan ma'noni bildiradi. Bizning mahalladagilar futbolni juda yaxshi ko'radi. O'yinda men darvozabon bo'laman. Maktabda ham jismoniy tarbiya darsida futbol o'ynab qanchadan-qancha katta-kichik sinflarni ustidan g'alaba qilganmiz. Bizning sinfda futbolni Hasan va Husan Nazarovlar, Sardor Soatov, Furqat Yusupov, Asqar Yunusov degan do'stlarim yaxshi o'ynashadi. Buvimlarning mahallalarida sport maydonchasi bor. Men har kuni kechqurun soat 18.00 da maydonga chiqib, Xurshid, Po'lat degan do'stlarim bilan futbol o'ynayman. Xurshid: «Men futbolga qiziqmas edim. Endi esa televizorda futbolni ko'rib, qiziqib qoldim» - dedi. Bolalar sizlar ham sport bilan shug'ullaning. Sport bilan shug'ullansangiz sog'lom, tetik bo'lib o'sasiz.

Dilshod USMONOV,
Akmal Ikromov tumanidagi,
Ahmad Yassaviy nomli 203- o'rta maktabning
4- «J» sinf o'quvchisi.

BAYRAMINGIZ MUBORAK!

Mana 1 sentyabr yana kirib keldi. Bu kun biz uchun qo'shaloq bayram. Aziz yurtimiz mustaqil bo'lgan kunni zo'r quvonch bilan qarshi olsak. Ta'til davrida sog'inib qolgan o'qituvchi va do'stlarimiz ila xursand bo'lib ko'rishamiz.

Men Toshkentdagi 113-maktabga birinchi sinfga bordim. Maktabga 1-sinfga kelgan kunimdan Muazzama opa Valiyeva direktor edilar. Men 4-, 5-sinfga o'tgan davrimda u kishi bizga til-adabiyotidan dars berdilar. Dars berish bilan birga oilani qadrlash, Vatanni sevish, do'stlikni qadriga yetish, go'zallik, latofat sirlarini uqtirib borardilar. Mana biz 1 sentyabrda maktabga boramiz. Aziz opajonimiz Muazzam opa esa nafaqada dam olayaptilar.

Qadrli «Tong yulduzi» gazetasi orqali aziz va mehribon ustozimizni eng aziz bayram bilan muborakbod etamiz. Eng aziz o'qituvchilarimizning mehnatlarini doimo oqlashga harakat qilamiz. Doimo sog' bo'lishsin.

Ra'no BONIYAZOVA,
Toshkent shahar,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
113-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

TAASSUROTGA BOY BO'LDI

Faroxat har yili yozgi ta'tilda Toshkentga mehmonga keladi. Har kelganida «Tong yulduzi» gazetasiga o'zining mashqlarini olib borishni o'ylaydi-yu, biroq uddasidan chiqolmaydi. Bu safar albatta borsa kerak. Chunki oyijonisi va'da berdi-ku...

- Toshkentga borganimizda «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga ham kirib o'tamiz-a?

- Albatta, kirib o'tamiz. Yozgan she'r va maqolalaringni ham olish yodingdan chiqmasin.

- Sira yodimdan chiqmaydi-da,- dedi Faroxat oyisiga va yo'lga hozirlik ko'ra boshladi.

Onasi o'z so'zidan chiqdi, uni va ikki singlisini «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga olib keldi.

- Biz Xorazm viloyatining Urgench shahridan keldik,- dedi Faroxat Jabborova. - Sobir Rahimov nomli 16- maktabning 8- «A» sinfida o'qiyman. Singillarim ham shu maktabda, Remajon 5- «A», Nodira esa 4- «A» sinfda o'qishadi.

Men adabiyotga qiziqaman. Singillarim akkordeon chalib, qo'shiq aytishadi. Remajon rasm ham chizadi.

- Juda yaxshi-da. Toshkent sizlarga yoqdimi? Yozgi ta'tilingiz qanday o'tdi? Shular haqida gapirib bering.

- Poytaxtimiz Toshkent kundan- kunga chiroy ochib borayapti. Bu yil yanada go'zallashibdi. Ko'plab bunyodkorlik ishlari bo'layotganiga guvoh bo'ldim. Ayniqsa Amir Temur xiyoboni va Mustaqillik maydoni menga juda ham yoqdi.

Meni «Assalom O'zbekiston» tonggi dasturiga taklif etishdi. U yerda Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan she'rimni o'qib berdim.

Bir oy Toshkentda mehmon bo'lib, ko'plab aktyorlar, jurnalistlar, san'atkorlar bilan uchrashdim. Ulardan kerakli maslahatlar oldim. Xullas, ona yurtim Xorazmga bir olam taassurotlar bilan qaytayapman.

Poytaxtda ko'rganlarimni sinfdoshlarim, ustozlarimga albatta gapirib beraman. Ustozlarimning menga ko'p mehnatlari singgan. Ayniqsa, Zamira opa Sharipova, Maryamxon opa Rahmonova, Gulchehra opa Ishniyozovalar biz o'quvchilardan bilimlarini, samimiy maslahatlarini ayashmaydi.

Biroq, maktabimizda to'garaklar kamroq. Ko'plab fan va hunar to'garaklari tashkil etilsa yaxshi bo'lardi. Tengdoshlarim ko'cha changitib, bekor yurgandan ko'ra, o'zlari qiziqqan to'garaklarga a'zo bo'lishardi...

Faroxat ismli dugonam bor. U ham adabiyotga qiziqadi, she'rlar yozadi. Ikkimiz birgalashib mushoira o'tkazamiz. «Til» nomli she'rim mushoiramizga qo'shilgan Intizor opamga ham ma'qul bo'ldi. She'rimni siz ham tinglab ko'ring-a:

Til dil kaliti deb xalqimiz aytar
Bu tilda ajdodlar g'azallar bitar.
Shu tilda ham so'zlab, ham kuylab turib
Tilini o'zgaga nomardlar sotar.

Navoiy, Uvaysiy, Beruniy, Bobur,
Ibn Sino, Furqatlar tilidir bu til.
Ajdodlar tilini sevib, ardoqlab,
To tirik ekanmiz pokizadir dil.

Buxoroda chop etiladigan «Ziyokor» gazetasida bir qancha she'r va maqolalarimiz bosilgan. Tahririyat homiyligida Mustaqilligimizning o'n yilligiga bag'ishlab o'nta o'quvchining she'rlari jamlangan kitobcha nashr etilish arafasida. Ushbu o'quvchilar orasida men ham borligimdan xursandman. Nasib bo'lsa, o'z ijodim bilan yurtimga halol xizmat qilaman.

Niyating hamroxing bo'lsin, Faroxat!

Feruza ODILOVA.

QIZALOQLAR - QIZG'ALDOQLAR



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi Xuvaydo mahallasida fayzli bir xonadon bor. Bu ahil oilaga mahallada ko'pchilik havas qiladi. Bu bejiz emas albatta. Oila boshlig'i Abdusamat akaning mehribon ota, kezi kelganda o'ta talabchan inson ekanliklari, Rahima hoji oyining farzand tarbiyasini har narsadan ustun qo'yishlari bois bu oilada komil farzandlar voyaga yetdilar. To'rt o'g'il, bir qizning hammalari 169- maktabni oltin medal bilan tamomladilar. Hozirda ular turli jabhalarda, birlari shifokor, birlari jarroh, birlari savdo xodimi bo'lib, xalqimiz koriga yarayaptilar. Oralarida ota kasbini ulug'lab kelayotganlari ham bor. Ularning har biri haqida ajoyib fikrlar bildirish mumkin. Lekin biz bu sulolaning kenja vakilalari - ya'ni nabiralar haqida hikoya qilishga ahd qildik.

Dilafro'z Usmonova onasi tahsil olgan 169- maktabning 5- sinfida, singlisi Dilnoza esa 4- sinfida a'lo baholarga o'qib kelishyapti. Tabiatan ikkisi ikki olam: Dilafro'z juda quvnoq, sho'x, dadil qizaloq. She'rlar yozadi, yod olgan she'rlarini ifodali qilib o'qiydi. Qo'shiq kuylaganda yonidan ketolmay qolasiz. Ayniqsa, Shuhrat Qayumovning «Netay»ini kuylaganda ko'zlaringizga beixtiyor yosh keladi. Shundanmi, maktabida bo'ladigan hech bir tadbir, tantana uning ishtirokisiz o'tmaydi. So'zamolligi, mayin va yoqimli ovozi bilan davralarga fayz kiritadi. Unga, san'at chashmasi, iste'dod g'unchasi, deya ta'rif berishlari ham shundan. Viktorina va tanlovlarda qatnashadigan bo'lsa, sovrinsiz qaytmaydi. 1 Iyun- Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlab «Bog'i Eram» saylgohida o'tkazilgan viktorinada ham qonunchilikka oid savollarga tez va to'g'ri javob bergani uchun «akademik» degan ramziy unvonga sazovor bo'ldi. Qo'shiq aytish, raqsga tushish, ifodali she'r o'qish kabi shartlari bo'lgan yana bir tanlovda esa «1- qaldirg'och» nomini olib, sovg'aga kattakon qo'g'irchoq olgandi. Tasodifni qarangki, shu kuni singlisining tug'ilgan kuni ekan. Dilafro'z uni samimiy qutlab, qo'g'irchog'ini sovg'a qilganida buvijonisi ko'zlariga yosh olib, nabirasining peshonasidan o'pib qo'ygandi... Buni qarangki, kichkina Dilafro'zning taxallusi ham bor ekan. Bir kuni sevimli shoirimiz Po'lat Mo'min uning she'rlarini tinglab: «Sen kelajakning Zulfiyasi bo'libsan. Yozgan she'rlaringga Bonu deya taxallus qo'ygin» debdilar. Ammo Dilafro'z hozircha o'z she'riy mashqlarini bunday taxallusga loyiq emas, deb hisoblab, yanada yaxshiroq yozishga harakat qilyapti. Hozirdanoq «Ko'zmunchoq», «Shoirlar bolalarga» ko'rsatuvlarida qatnashib yurgan Dilafro'zning kelgusidagi orzulari bir olam: telejurnalist bo'lish, dunyo kezish ishtiyoqida. Yana, mehribon buvijonisini chet el safarlariga olib borishni niyat qiladi...

Singlisi Dilnoza esa og'ir-bosiq, vazmin qizaloq. Olti yoshida maktabga chiqqan. O'shandagi bir voqeani hali-hanuz kula-kula eslab yurishadi: 1- sinfda o'qib yurgan kezlarida darslarni tinglamay, yozmay o'tiraveribdi. Ustozi «Nega dars tinglamayapsan?» deb so'raganida, men biladigan narsalarni o'rgatyapsizlar, deya javob bergan ekan. Shunda qizchani sinab ko'rish uchun, beshdan ikkini ayrsak necha bo'ladi?, deb so'rashibdi. Kutilmaganda Dilnoza «nima, meni jinni deb o'ylayapsizlarmi?», deya yig'lab yuboribdi. Shundan so'ng uni maxsus imtihondan o'tkazib, 2- sinfga qabul qilishgandi. Natija yomon bo'lmadi, Dilnoza tez orada a'lochilar qatoridan o'rin oldi. Ayniqsa, matematika va ingliz tilini zo'r qiziqish bilan o'rganyapti. Bo'sh vaqt topdi deguncha, mahalladagi tengdoshlari bilan «Bank» o'yini o'ynashni xush ko'radi. Ulg'aygach bankir bo'lish orzusida. Suyukli buvijonisini albatta Hajga ziyoratga olib bormoqchi...

Darvoqe, qizaloqlarning onasi Dilbar opa shifokor bo'lganliklari, bo'sh vaqtlari kamroq bo'lganligi bois, ular tarbiyasi bilan asosan Rahima buvijonlari shug'ullanadilar, tanlovlarga, saylgohlarga ham o'zlari olib boradilar. O'quv yili yakunida shunday ajoyib nabiralarni tarbiyalaganliklari uchun onaxonimiz «Maqtov yorlig'i» bilan taqdirlandilar...

Ta'til kunlarini mana shunday sermazmun, maroqli o'tkazgan, darsliklarining barini o'qib chiqishga ulgurgan, 1 sentyabrni intizor kutgan opa-singillar yana qadrdon maktablari tomon yo'l olishdi. Ularning ortidan havas bilan boqib, ko'nglimizdan bir o'tinch kechdi: Yo'llaringiz oydin, oppoq orzularingiz hamrohingiz bo'lsin, XXI asr avlodlari! Iqtidorli, intiluvchan qizlaringni quchoq ochib kutib ol, Maktab!

Feruza JALILOVA.

O'YNAB-O'YNAB O'QUVCHI BO'LDIM

Tog'am Ravshanbek Salimov Toshkent shahar sotsial ta'minot boshqarmasida nafaqa tayinlash bo'limi boshlig'i bo'lib ishlaydilar. Esimni taniganimdan beri uyga quvonib qaytadilar va buvijonimga shunday deb aytadilar: «Toshkentdan gapiramiz, e'lonlar eshittiramiz, nafaqalar maoshi yana oshdi...». Buvijonim esa sekinroq gapir, baland tovushingni eshitganlar kuladi deydilar. Albatta kulsin-da, quvonchli gap aytyapman-ku, - deydilar tog'am. Toshkentdan gapirsam, butun bir mamlakatga gapirganim bo'ladi. Axir Toshkent O'zbekistonning poytaxti-ku... Tog'amning qizi Dildora opam bu yil 9-sinfni,o'g'illari Obidjon akam esa 6- sinfni bitirishdi. Ular Yakkasaroy tumanidagi 91-maktabda o'qishadi. Tog'amning gaplarini eshitib, darhol maktabdagilarga ham yetkazishadi. Mening esa ularga havasim kelib, qachon maktabga borarkanman, qachon men ham Toshkentdan gapiraman, e'lonlar eshittiraman deb,tog'am kabi quvonchli xabarlarni odamlarga yetkazarkinman deb, dildan niyat qilib yurardim. Orzuimga yetdim. Yunusobod tumanidagi 235- maktabning 1-sinf o'quvchisi bo'ldim. Sinfimiz ingliz tili va matematika fanini chuqur o'rgatadi. O'rtoqlarim ham ko'pchiligi o'zimga tanish bolalar. Ular bilan bir bog'chaga qatnaganmiz. Onam Feruza Salimovani Yunusoboddagilar yaxshi tanishadi. Chunki ular ham uzoq yillardan beri bog'cha opa bo'lib ishlaydilar-da. Maktabdagilar bog'cha opamning bolasi deb, men bilan juda tez chiqishib ketishiga ishonaman. O'zim ham o'ynab-o'ynab maktab yoshiga yetganimni sezmay qoldim. Mahalla bolalari bilan futbol o'ynashni yaxshi ko'raman. Shaxmatchi bo'lib hatto akalarimni ham mot qilganman. Ayniqsa, karate to'garagiga qatnab kelgan kunim, o'rtoqlarim men o'rgangan mashqlarni qayta ko'rsatib ber deb turishsa, o'zimni ustoz karatechidek tutaman. Chunki ustozim Vitaliy Kim menga bu borada havas uyg'otgan. Mening yozganlarimni o'qib, «Tong yulduzi» muxlislari o'zi yozgan bo'lmasa kerak bu gaplarni deb o'ylashlari aniq. Yozishni ko'ngildagidek uddalay olmasam ham, rasm chizishni qotiraman. Kelgusi sonlarda men chizgan rasmlarni kuting. Albatta unda maktab hayoti bilan bog'liq voqealar jamuljam bo'ladi. Bu xatimni esa men aytib turdim, «Tong yulduzi»ning chaqqon harf teruvchisi Nilufar opa Shomurodova yozib oldi. Rahmat Nilufar opa! Sizni, siz orqali «Tong yulduzi» gazetasida ishlaydigan barcha aka-opalarimni Mustaqillik bayrami bilan tabriklayman. Mustaqillikning har bir yili sizlarga omad keltirsin. Shu jumladan menga ham. Yangi tanishlarim uchun tog'am Ravshan Salimov bilan tushgan suratimni taqdim qilayapman. Men bilan tanishmoqchi bo'lganlar, yozda uyimiz yonidagi hovuzda tushgan suratimni ham ko'rib qo'yishsin va Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 235- maktabning 1-sinf o'quvchisi Azizbek Salimovga deb xat yozishsin. Men ham ularga o'z ustozlarim, yaxshi ko'rgan sinfdoshlarim haqida yozib yuboraman. O'qishga, o'qiganlarimni o'rtoqlarimga gapirib berishga juda qiziqaman. Baxtimizga osmonimiz tinch, yurtimiz obod bo'laversin! Biz esa ota-onamizning issiq bag'rida, qadrdon ustozlarimiz quchog'ida o'ynab kulib yashaylik.

Azizbek SALIMOV.

«ИҚТИСОДИЁТДАН САБОҚЛАР» СИРТҚИ МАКТАБ ТАНЛОВИНИНГ ЯКУНЛАРИ.

Халқ таълими вазирлигининг 2001 йил 24 июл 105-сонли «Қобилиятли, ижодкор болаларни ўқитиш ва дам олишини таъминлаш мақсадида физика, математика, кимё ва иқтисодий билим асослари бўйича «Иқтидор-2001» ёзги мактаб тўғрисида» буйруғига кўра Жиззах вилоятининг Зомин туманида жойлашган Амур Темур номидаги ёзги болалар оромгоҳида «Иқтисодиёт сабоқлари» сиртқи мактаб танловининг якунловчи босқичи бўлиб ўтди. Оромгоҳда ўқувчилар 10 кун давомида академик, проффессор ўқитувчилар билан бевосита мулоқотда бўлдилар. Шу билан бирга ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида спорт мусобоқалар ва маданий тадбирлар ўтказилди. Конкурснинг якуний босқичида 12 нафар ўқувчи иштирок этди.

Ўзларининг фаол иштироклари билан барча босқич топшириқларига тўлиқ жавоб йўллаган ва ёзги мактабда фаол қатнашган қуйидаги ўқувчилар 2000-2001 ўқув йили «Иқтисодиёт сабоқлари» сиртқи мактаб танловининг ғолиблари деб эътироф этилди:

Қашқадарё вилояти, Карши шаҳридаги 34-мактаб ўқувчиси Сардор Муродов I-даражали диплом ва телевизор мукофоти билан, Фарғона вилояти, Бағдод туманидаги иқтисодиёт гимназияси ўқувчиси Мухтор Муҳаммадиев II-даражали диплом ва компьютер мосламаси мукофоти билан, Қашқадарё вилояти, Карши шаҳридаги 35-мактаб ўқувчиси Хусан Хидиров III -даражали диплом ва компьютер ўйини мосламаси билан, Бухоро вилояти, Қоракул туманидаги 1-сон ихтисослаштирилган болалар мактаб-интернати ўқувчиси Сухроб Файзиев танлов совриндори унвонига эга бўлди ва эсдалик мукофоти билан, Сурхондарё вилояти, Узун туманидаги 3-истеъдодли болалар мактаби ўқувчиси Азиз Маматқулов конкурс совриндори унвонига эга бўлди ва эсдалик мукофоти билан, Андижон вилояти, Қорасув шаҳридаги 30-ихтисослаштирилган мактаб интернати ўқувчиси Гайрат Абдурашидов конкурс совриндори унвонига эга бўлди ва эсдалик мукофоти билан, Самарқанд вилояти, Пахтачи туманидаги 21-мактаб ўқувчиси Насима Бекмуродова конкурс совриндори унвонига эга бўлди ва эсдалик мукофоти билан Андижон вилояти, Қорасув шаҳридаги 29-мактаб ўқувчиси Ирода Қамбарова конкурс совриндори унвонига эга бўлди ва эсдалик мукофоти билан, Жиззах вилояти, Бахмал туманидаги 33-мактаб ўқувчиси Миркомил Яхшибоев конкурс совриндори унвонига эга бўлди ва эсдалик мукофоти билан тақдирландилар.

Оромгоҳда иқтисодий билим асослари фанидан ўтказилган олимпиада ғолиблари деб қуйидаги ўқувчилар эътироф этилдилар ва Андижон вилояти, Қорасув шаҳридаги 30-ихтисослашган мактаб интернати ўқувчиси Машхура Абдуллаева I-даражали диплом ва компьютер ўйини мосламаси мукофоти билан, Тошкент шаҳридан Музаффар Каримов II-даражали диплом ва спорт анжоми мукофоти билан, Қашқадарё вилояти, Қарши шаҳридаги 10-мактаб ўқувчиси Умид Бурхонов III-даражали диплом ва эсдалик мукофоти билан тақдирландилар.

Энг яхши бизнес лойиҳа танловида Сурхондарё вилояти, Узун туманидаги 3-истеъдодли болалар мактаби ўқувчиси Абдуманнон Рахимов I-даражали диплом ва эсдалик мукофоти билан, Андижон вилояти, Қорасув шаҳридаги 30-ихтисослаштирилган мактаб интернати ўқувчиси Машҳура Норбоева II-даражали диплом ва эсдалик мукофоти билан ва Бухоро вилояти, Қоракўл туманидаги I-ихтисослаштирилган болалар мактаб интернати ўқувчиси Хусан Шеров III-даражали диплом ва эсдалик мукофоти билан тақдирландилар.

Юқорида номлари зикр этилган барча ўқувчиларни қўлга киритган ютуқлари билан чин юракдан табриклаймиз. Уларни тарбиялаб, шу даражага етказган мактаб жамоасига, иқтисодиёт асосларини юқори даражада ўргатаётган ўқитувчиларга, қолаверса, ота-оналарига ўз миннатдорчилигимизни билдирамиз.

Шунинг билан бу йилги «Иқтисодиёт сабоқлари» сиртқи мактаб конкурси ўз ниҳоясига етди. Ўйлаймизки, сиз азиз ўқувчилар конкурсда иштирок этиб иқтисодий билимларингизни чуқурлаштириб, иқтисодиётнинг янги қирраларидан хабардор бўлдингиз. Келгуси конкурс босқичларида учрашгунча.

«Иқтисодиёт сабоқлари» сиртқи мактаб конкурси ташкилотчилари.

BAYRAMLAR BAYRAMLARGA ULANGANDA

Mustaqilligimizning 10 yilligini nishonlash arafasida, siz aziz bolalar uchun ham eng sevimli bo'lib qolgan inson - O'zbekiston xalq rassomi, Hamza mukofoti va boshqa ko'pgina mukofotlar sovrindori, O'zbekiston badiiy akademiyasi akademigi Ro'zi Choriyev 70 yoshga to'ladilar.

Surxondaryo viloyatining, Sherobod tumani, go'zal manzarali tog' qishlog'i Poshxurda tavallud topgan rassom, juda erta ota-onasidan yetim qolgan va bolalar uyida tarbiyalangan. Uning aytishicha, bolalar uyi tarbiyachilaridan biri bo'lgan bir rus ayoli undagi surat chizishga bo'lgan qobiliyatini sezib, unga har tomonlama yordam bergan. O'zining ilk suratlarini go'zal Surxondaryo tabiatini aks ettirishdan boshlagan ekan. Keyinchalik Respublika P.Benkov nomidagi rassomchilik bilim yurtini, so'ng Leningraddagi P.Repin nomidagi rassomchilik, me'morchilik va haykaltaroshlik institutini tugatgan R.Choriyev o'sha davrning P.Benkov, Kashina, Karaxan, Tansiqboyev, Volkov, Fyodorov kabi yetuk va taniqli rassomlari yaratgan rassomlik maktabi sabog'ini olishga muyassar bo'ldi. Butun jahon taniqli rassomlari asarlarini sinchiklab o'rgandi. Rassom o'zining eng sara asarlarini 50-60-70-80 - yillari yaratdi. Uning asarlari mazmunini O'zbekistonning go'zal tabiati, ajoyib va mehnatkash kishilari obrazlari tashkil etadi. R.Choriyev O'zbekiston tabiatini o'zining yaratgan son-sanoqsiz peyzaj va natyurmortlarida o'ta mahorat bilan tasvirlay oladi. Portret janrida yaratgan asarlarida o'zbek eli, insonlari obrazini aynan aks ettira oldi va eng yetuk rassom sifatida tanildi. U juda ko'p Respublikamiz va chet el ko'rgazmalari ishtirokchisi. Dunyoning ko'pgina eng taniqli muzey va galeriyalaridan uning asarlari joy olgan. Uni respublikamizda va chet ellarda darhol tanishdi. Nafaqat rassom sifatida balki jonkuyar va mehribon murabbiy, yaqin do'st sifatida bilishadi. U hammaning do'sti, otaxoni o'zining barakali ijodiy faoliyati davomida juda ko'p shogirdlarni tarbiyaladi. Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Tohir Mirjalilov va boshqa ko'pgina taniqli rassomlar uning shogirdlari.

R.Choriyev shogirdlariga, ayniqsa bolalar uyida va nogironlar uylarida tarbiyalanayotgan iqtidorli bolalarga juda katta e'tibor bilan yordam beradi. Yillar davomida bolalar bilan ishlashdan charchamaydi. Bolalar uchun tashkil etilgan barcha tadbir va ko'rgazmalar uning ishtirokisiz o'tmaydi. U bolalarning sevimli ustozi va otasiga allaqachon aylanib bo'lgan.

Mustaqilligimiz tufayli bolalar ijodiga yildan-yilga e'tibor oshib borayapti. Hozirgi kunda bolalar ijodiy uylari, rassomlik litseylari O'zbekistonimizning barcha viloyatlarida faoliyat ko'rsatayapti. Bu san'at maktablarida tarbiyalanayotgandan juda ko'p iqtidorli bolalar yetishib chiqayapti. Ularning ilk ijodiy namunalari «Bolalar san'ati», - deb nomlangan ko'rgazmalarda namoyish etilayapti. O'zbekistonlik ijodkor bolalarning ijodlari bugungi kunda butun dunyo bolalari san'ati qatorida chet ellarda namoyish etilayapti va yuksak baholanayapti. Shu yutuqlarimizda rassom R.Choriyevning xizmatlari juda katta.

Hukumatimiz tomonidan R.Choriyevning xizmatlari yuksak baholanib kelinayapti. Mustaqillik bayrami arafasida «Shuhrat», «El yurt hurmati», «Buyuk xizmatlari uchun» mukofotlari bilan taqdirlandi. Ana shu ajoyib inson barcha bolalar va kattalarning qadrdon do'sti, murabbiysi Ro'zi Choriyev ulug' bayramimiz arafasida 70 yoshga to'ladilar.

Kelinglar u kishini tavallud kunlari bilan muborakbod etib, kelgusida yangidan-yangi ijodiy muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Timur RO'ZIMATOV.

ISTIQLOL GULDASTASI

BAYRAM ERTALIGI

Sahna bezagi:
Al-Xorazmiy, Beruniy, Cho'lpon, Fitrat, A.Temur rasmlari.
Gullar, rangli qog'ozdan kabutarlar, bayroqchalar, sharlar.

- Yurtlar ko'pdir bir-biridan ziyoda,
O'zbekiston - go'zal diyor dunyoda.
Hur o'lkamda baxtli yashash-tilagim,
Istiqlolni qutlar jajji yuragim.

Boshlovchi qiz:
Salom, aziz bolalar!
Ta'zim ota-onalar!

Boshlovchi bola:
«Istiqlol guldastasi» bayram ertaligimizga xush kelibsiz.

1- o'quvchi:
Sajdagohdek aziz muqaddas diyor,
Buyuk ajdodlarim yashagan makon.
To'yingdan quvonib etdim ixtiyor,
Tabrik-chun qilmoqni ash'or armug'on.

2- o'quvchi:
Assalom, azizlar to'yga marhabo,
Xalqimiz olamga yozar dasturxon.
Ozodlik quyoshi sochar nur-ziyo,
Yo'limiz charog'on, kuldi sharaf-shon.

3- o'quvchi:
Tuprog'ing oltindir, bag'ring gulbahor,
Tarixing o'zbegim, mashhur jahonga.
Beqiyos, bebaho, maftunkor diyor,
Men seni alishmam hech bir makonga.

4- o'quvchi:
To'ylaring muborak O'zbekistonim,
Ey, jarchi, chorlagin shodiyonaga.
Jon elim, faxrimsan, jonu-jahonim,
Shodligim sig'magay sho'x taronaga.

Boshlovchi qiz:
Qo'shiq: O'zbekiston. Raqsida qizlar guruhi.

5- o'quvchi:
Tuprog'ing zar sening
Quyoshing zargar.
Bog'u rog'laring ham,
So'lim serjilo.
Bir marta tuzingni totsa kim agar,
Bo'lg'usi vaslingga bir umr shaydo.

6- o'quvchi:
Bog'laring asaldek mevasin tanlab,
Tuhfa yasar to'yga, azamat bog'bon.
Bastakor kuy bitar, to'yga ataylab,
Madhingni qilurlar shoirlar doston.

Boshlovchi qiz:
Gullagin, yashnagin, topaver kamol,
Jahonda eng go'zal O'zbekistonim.

Boshlovchi bola:
Ey, oltin ostonam, mehribon onam,
Ilhomim, qo'shig'im, g'azal bo'stonim.

Boshlovchi qiz:
Raqs. Dilxiroj. Ijro etadi o'g'il bolalar guruhi.

7- o'quvchi:
Istiqlol nuridan yashargan o'lkam,
Sohibqiron Temur yashagan Turon.
Mustaqil, ozodsan, bu kun chinakam,
Yer, suv dahlsiz, dahlsiz osmon.

8- o'quvchi:
O'tmish ajdodlarim ruhi bu kun shod,
Keldi Fitrat, Cho'lpon orzu qilgan kun.
Dini Islom ila qalbimiz obod,
Ollohga ming shukur, bu kunlar uchun.

Boshlovchi qiz:
Istiqlol, intizor kutilgan oftob.

Boshlovchi bola:
Istiqlol saodat, shariy inqilob.

Boshlovchi qiz:
Olam gulga to'laversin sarxilidan,
Barcha xursand bo'laversin chin dilidan.

Boshlovchi bola:
Raqs. Tantana.

Boshlovchi qiz:
Millat bo'lib qaytdi-yey yo'qotgan marjonlarim,
Ko'zmunchog'im keltirdi mangulikni tilimga.

9- o'quvchi:
Baxtli bo'l, bo'l mehnat kurashda g'olib,
Sohibqiron ruhi bo'lsin madadkor.
Fanda ham, ilm ahli lol, hayron qilib,
Dunyoni zabt etgan daholarim bor.

10- o'quvchi:
Alloma Beruniy nomin bilmas kim?!
Ilm xazinasi bo'lmaydi barbod.

11- o'quvchi.
Al-Xorazmiydin meros Al Jabr,
Muhandis ilmining bosh tamal toshi.
Naqshbandiy bobom, gar joiz ta'bir,
Islomning Sharqdagi yorqin quyoshi.

12- o'quvchi:
Ta'rifingdir tillarda doston,
Lol bo'libdi senga keng jahon.

13- o'quvchi:
Mehnatingla kun ko'rding har on,
Omon bo'lgin, o'zbegim omon.

Boshlovchi qiz:
Ezguliklar jon-taningdadir,
Ajdod yodi qon-qoningdadir.

Boshlovchi bola:
Vatan mehri jon-joningdadir
Omon bo'lgin, o'zbegim omon.

Boshlovchi qiz:
Raqs. Tanovor. Ijro etadi qizlar guruhi.

14- o'quvchi.
Qadamingdan chechaklar unsin,
Osmoningda quyosh, oy kulsin.
Falak senga bosh egib tursin,
Omon bo'lgin, o'zbegim omon.

15- o'quvchi:
Istiqloling muborak bo'lsin,
Omborlaring g'allaga to'lsin.
Farzandlaring qalqoning bo'lsin,
Omon bo'lgin, o'zbegim omon.

Boshlovchi qiz:
Qo'shiq. Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston. (Raqsida o'g'il va qiz bolalar).

Boshlovchi qiz:
Zulmatni nur quvgani chin endi,
Yuzimizni gul yuvgani chin endi.
O'zbekiston, istiqloling muborak,
Baxt-iqboling, istiqboling muborak!

Boshlovchi bola:
Mustaqillik yor bo'lgani chin endi,
Adolatu erk kulgani chin endi.
O'zbekiston, istiqloling muborak,
Baxt-iqboling, istiqboling muborak!

O'qituvchi:
Shuning bilan azizlar «Istiqlol guldastasi» bayram ertaligimiz o'z nihoyasiga yetdi. (Ertalik yakuniga quyidagi qo'shiq qo'yiladi yoki o'quvchilar aytishadi).
Olamni asrang do'stlar,
Odamni asrang do'stlar.

Inoyat MAVLONOVA,
Yuqori Chirchiq tumanidagi 20 - o'rta maktabning o'qituvchisi,
«Shuhrat» medali sohibasi.

SHOIR BO'LISH QIYINMI?

Choy nima uchun ichiladi? Nima uchun biron bir taom nonsiz tomog'imizdan o'tmaydi? Inson nima uchun har kuni ma'lum soat uxlab, dam olishi kerak? Mana shu singari savollarning barchasiga yaxlit qilib, tabiiy istak-xohishlarimiz tufayli shunday bo'ladi, deb qo'ya qolsa ham bo'ladi. Qissadan hissa, nima uchun shoirlar she'r yozadilar degan savolga oddiy javob topish. Barcha tabiiy mayllarimiz singari she'r yozish ham insonning tabiatidan kelib chiqadi. Bizlar toliqqanimizda biron kuy yoki qo'shiq xirgoyi qilib, hordiq chiqaramiz. Xuddi shunday yuragimiz to'lib ketganida do'stlarimiz yoki yaqin kishilarimiz bilan dardlashib, ancha yengil tortamiz. Shoirlar ham tabiatan o'ta his-hayajonga beriluvchan shaxslar bo'lgani sababli yuraklarining to'ridan joy olgan, ezgu niyatlar bilan yo'g'rilgan his-tuyg'ularini she'riy satrlarga solib, yengil tortadilar.

Shuni ham unutmaslik kerakki, istalgan kimsa she'r yozish qoidasini o'zlashtirgani bilan shoir bo'lib qolavermaydi. Buning uchun avvalo, tabiat ato etgan iqtidor lozim. Yoki o'zida shoirlik xislatini tarbiyalab voyaga yetkaza olgan shaxsgina yirik shoir bo'lishi mumkin. Umuman, el nazariga tushgan shoir bo'lishning sir-asrorlari shunchalik ko'pki, ularni birgina suhbat asnosida sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi. Yaxshisi o'tmishda yashab o'tgan alloma shoirlarning tarjimai holi, ijodiy yo'li bilan yaqindan tanishish asnosidagina shoirlikning o'ziga xos sir-asrorlarini teranroq ilg'ab yetish mumkin.

Abdulhamid PARDAYEV

OTASHQALB SHOIR

O'zbekiston zamiri azal-azaldan shoirlarga boy bo'lib kelgan. Yurtimizda qadim-qadimlardan ham oddiy fuqarodan tortib, shohlargacha she'rxonlik, g'azalxonlik bilan shug'ullanishni o'zlari uchun sharaf deb bilganlar. Bunga hazrat Navoiyning do'sti Sulton Husayn Boyqaroning ulkan saltanatning podshosi, qolaversa devon tuzgan, ajoyib g'azallar, hattoki mutafakkir do'sti Alisher Navoiy to'g'risida risola ham yozganini misol qilib keltirish mumkin.

Bugungi suhbatimizning qahramoni Jorj Gordon Bayronning yurti - Angliya yoki tumanli Albion ham azal-azaldan tengi yo'q ijodkorlar vatani bo'lib kelayotir. Birgina Vilyam Shekspirning o'ziyoq butun bir millat adabiyotiga arziydigan asarlar muallifi. Uning «Gamlet», «Otello», «Qirol Lir», «Romeo va Julyetta» singari dramalarini sizlar ham yaxshi bilishingizga shubha yo'q. Maktabingiz kutubxonasidan Shekspir asarlarining o'zbek tiliga o'girilgan yana bir bor olib, takroran o'qib qo'ysangiz, foydadan xoli bo'lmaydi. O'zingizdanini qolar gap yo'q, takrorlash bilimlarning onasi!

Shekspirning jahon adabiyotida o'chmas iz qoldirgan vatandoshlaridan biri, otashqalb shoir Jorj Gordon Bayron bo'ladi. Qisqa, biroq shon-shuhrat bilan yo'g'rilgan umr kechirgan Bayronning asarlari ham o'zbek tiliga tarjima qilingan. Uning ajoyib she'rlaridan birini «O'zbekiston» she'rining muallifi Hamid Olimjon o'zbek tiliga tarjima qilgan:

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda.
Choppar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.

Ha, yashang, aynan mana shu satrlar bilan boshlanadigan «O'zbekiston» manzumasining muallifi atoqli shoir Hamid Olimjon Bayronning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishdek xayrli ishga ham qo'l urgan.

Hamid Olimjon Bayronning muhabbat mavzuidagi go'zal she'rlaridan birini tarjima qilgan. Bu she'rda shunday satrlar bor:

Gunohlarim bilarsan, balki?
Majnun bo'lib suyganim, xolos.
Armonlarim xazon va seni
Suymak ila kuyganim, xolos.
...Alvido yor! Sendan uzoqda,
Har bir munis narsadan mahrum.
Qalbim azob degan tuzoqda,
Bundan ortiq bo'larmi o'lim?

Bayronni buyuk qilgan omillar, shartlar nimalardan iborat edi? - deb so'rashingiz tabiiy. Bu haqda men ham ko'p o'ylaganman. Siz singari o'quvchilik kezlarimda bu haqda o'ylab ko'rmagan ekanman. Endi yoshim ancha ulg'ayib, sochimning oqlari ko'paya boshlagach, hayotning qator sir-asrorlaridan oz-ozdan bo'lsa-da, xabar topa boshladim. She'riyatga bo'lgan qiziqish esa Bayron singari jahonshumul iste'dod sohiblarining ijod sirlari bilan qisman bo'lsa-da, oshno qilayotganidan baxtiyorman.

BAXT NIMA?

Siz baxt nima degan masalada bosh qotirganmisiz? Darvoqe, baxt nima? A'lo o'qishmi? Odobli bo'lishmi? Mehnatsevarlikmi? Baxt nima degan savolga har kim har xil javob beradi. Men baxt nima degan savolga ezgu niyatlar bilan yashab, ezgu orzu-niyatlarni kuylagan shoirlar, adiblarning asarlarini berilib mutolaa qilish, qaysi zamonda, qay bir o'lkada yashaganlaridan qat'iy nazar ular bilan g'oyibona hamfikr, hamnafas bo'lishdan iborat, deb javob bergan bo'lardim. Jumladan, Bayron siz bilan biz yashayotgan O'zbekistondan nihoyatda olis Angliyada tavallud topgan bo'lishiga qaramay u she'rlarida, dostonlarida tarannum etgan yuksak g'oyalar, adolatparvarlik, xalqparvarlik, hurriyatga tashnalik, inson qadr-qimmatini har narsadan yuqori qo'yishdek olijanobliklar uni tug'ishgan og'amizdek bizlarga yaqinlashtiradi.

Har bir shoirni anglab yetish uchun avvalo u yashagan davrni e'tibordan soqit qilmaslik kerak.

LONDON SHAHRIDA

Bayron 1788 yili tug'ilgan. Bayron Angliya tarixida nihoyatda og'ir bo'lgan kezlarda yashab, ijod qilgan. Davrning kuchli zarbalariga duch kelgan.

Jahon adabiyotining yirik siymolaridan biri, «Don Kixot» asarining muallifi, kimligini sizlar ham juda yaxshi biladigan Servantes «Ezgulikning yo'li tor va mashaqqatli bo'ladi», deb juda to'g'ri aytgan. Bayron ezgulikning yo'li qanchalar mashaqqatli bo'lmasin, shoirlik sha'niga, pok vijdoniga xiyonat qilmay chinakam qahramonlarga xos mardona umr kechiradi. U lord unvoniga loyiq ko'rilgach, Angliya parlament a'zosi bo'ladi. Mamlakat parlamenti minbaridan ishchilar va mehnatkashlarning mashaqqatli turmush kechirayotgani uchun bir hovuch zodagonlarni ayblab nutq so'zlaydi. Bayron bir to'da boy-badavlat kimsalar xalqning mashaqqatli mehnati evaziga shohona hayot kechirayotganini ko'rib, chiday olmaydi. Haqiqat jarchisi bo'lib maydonga chiqadi. Yirik zavod va fabrika egalarining adolatsizligi, ochko'zligi, boylikka mukkadan ketganligi, xalqning og'ir mehnati evaziga boyligiga boylik qo'shayotgani, aytishga til bormaydigan jirkanch ishlar bilan mashg'ul ekanliklarini ayovsiz fosh etadi. Shoir Angliya parlamenti minbaridan mana shunday keskin ayblov nutqi so'zlash bilan kifoyalanmasdan isyonkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan she'rlar ham yozadi. Bayronning bunday xalqparvarligi zolim va shafqatsiz zamona zo'rlariga ma'qul kelmasligi tabiiy edi. Shu bois ular Bayronga ta'na toshlari ota boshlaydilar. Uning sha'niga turli bo'htonlar yog'diradilar. Oxir-oqibat Bayron tug'ilgan ona yurtidan bosh olib ketishga majbur bo'ladi.

(Davomi bor).



Qardoshlar ijodi

Inessa FINNELSHTEYN

KO'ZLAR

Ko'zlar doim yaraqlagan,
Yulduzlarday charaqlagan.
Billur kabi ovozadir,
Tiniq suvday top-tozadir.

Qo'y-qo'zlarning jiddiy ishi,
Yoqtirmaydi janjal ishni.
Ayyor ko'zdir ba'zi ko'zlar,
Ular doim yolg'on so'zlar.

Tunda ko'zlar qattiq uxlar,
Ko'rganlarin eslar ular.
Uxlab tushlar ko'rar ko'zlar,
Ta'birini so'rar ko'zlar.

Kunduz neni ko'rsa ular,
Og'iz bilan bir-bir so'ylar.

OLOV

Li pillaydi sham alangasi,
Ko'mir, xamir, g'ishtlar hammasi.
Duch keladi olovga albat,
Pishmoq uchun izlab halovat.

Isitay deb charillar gulxan,
Alangasi gurillar ekan.
Butun uyni isitar pechka,
Issiqlikni chiqarmay chetga.

Bitta gugurt berar alanga,
Yong'in chiqib o'rlar balandga.
Bir chekkadan yondirib chiqar,
O'rmonlarni, uylarni yiqar.

O't otilsa chiqadi olov,
O'q yo'liga qo'yingizlar g'ov.
Oqshom lampa yorug'i go'zal,
Yoqtiramiz biz uni azal.

HAVO

Suv betida o'ynab yurar kim?
Daraxtlarni silab turar kim?
Kim olovni yelpitib o'ynar,
Kim uylarni isitib turar?

Bu havoning ongli - quvvati,
Yomonlikni haydab quvadi.
Goho janub, goho sharq tomon,
Qoldirgancha hammani hayron.

Kim chang, g'ubor, issiqda qolib,
Parvo qilmay yurganda g'olib.
Yengil shamol qo'zg'olib asta.
Silab o'tar uni bir pasda.

Shunda barglar uyg'onib chaqqon,
Og'ayniday bo'lib qadrdon.
Senga salom yo'llab qoladi,
Undan ko'ngling quvvat oladi.

Aziz ABDURAZZOQ tarjimalari.

SHAYTON MALAYLARI

Dadaxon NURIY

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Mo'ljal bo'yicha bugun tog'ning etagiga yetib borib, palatka tikishimiz, o'sha yerda tunab, ertalabdan cho'qqiga hujum boshlashimiz kerak edi.

Biroq, kun yarimlab qolganda oynatog' yana ko'zimizdan g'oyib bo'ldi. Negadir yuqorilash o'rniga pastlab ketayotganday edik... Atrofi baland mustahkam qal'ani eslatuvchi katta dara ichiga tushib qoldik. Dara bir vaqtlar Tillaxon buva bilan yurgan Axsarsoyni eslatardi. Keyin bu fikrdan o'zimni chalg'itdim: «Axsarsoy bo'lganda har qadamda buloq uchrardi, to'lib-toshib suv oqib turardi».

Bu noma'lum dara ichidan chiqib ketolmay rosa sarson bo'ldik. Nihoyat, kichik bir qiyalikda so'qmoq ko'rindi. U sovuq shamol ufurib turgan, qovjiroq o't-o'lan bilan qoplangan yalanglikka borib tutashardi. To'rt tomon qibla deganlaridek, shu yalanglik bo'ylab qayoqqa ketayotganimiz o'zimizga ham noma'lum bir holatga tushib qolgandik. Osmon bulut. Quyoshning chiqishi, botishi qayoqda, bilib bo'lmasdi. Bunday vaziyatda bir joyda aylanaverib holdan toyish, vaqtni behuda o'tkazish hech gap emas. Lekin, o'tirib olib nimanidir kutishdan ham foyda yo'q edi. Shunda biz o'zimiz bilan kompas olishni unutganimizdan afsuslandik.

Oxir, yura-yura xuddi kechasiga o'xshash bir qismi qurib, cho'ltoqlanib qolgan ayrimlari chirib, ag'anab yotgan fayzsiz terakzor ustidan chiqib qoldik. Terakzor orasidan har tomonga qarab ilon izi yo'llar ketgan, bu yo'llardan kimlardir yurib turadiganga o'xshardi.

Jim-jitlikni Vakilning ovozi buzdi:

- Hoy, bolalar! Kim svejiy sut ichadi, talabgorlar bo'lsa kelaversin. Faqat navbati bilan! - u to'nkarilib yotgan yo'g'on baqaterak ustiga uzun oyoqlarini cho'zib o'tirib olgan holda shundoq qarshisida kovsh qaytarib yotgan ikki shoxining orasida oq qashqasi bor qora govmish sigirga ishora qilar, uning shundoq qo'l uzatsa yetadigan biqiniga shappatilab qo'yardi. - Jonivor xuddi o'zimizning sigirga o'xshash beozor ekan. Bundoq qadam yetmas joylarga qandoq kelib qoldiykin!?

To'g'risi, biz o'ylaganimizga nisbatan ancha qiyin kechayotgan bu sayohat davomida yo'ldan adashganimizni guruhimiz a'zolariga sezdirmaslikka harakat qilsam -da, meni botiniy bir tashvish qiynoqqa solardi: shu tog'-toshlarda tug'ilib, voyaga yetganlarning o'zi yo'ldan adashib bir necha kun tog'lar orasida qolib ketishi, ba'zilarning esa boshiga tushgan ayanchli taqdir haqida eshitganlarim bor edi. Shuning uchun nahotki, bizlar ham adashdik deb qo'yardim o'zimga o'zim.

Sigirni ko'rib ko'nglim taskin topganday bo'ldi:

- Bu yaxshilik alomati, demak shu yaqin atrofda cho'ponlar qo'nalg'asi bor. Ulardan Oynatog'ga eltadigan yo'lni so'rab, bilib olamiz, - dedim ovozimni baland qo'yib.

Xuddi shu payt shamol qo'zg'olib, qayerdandir aks-sadoga o'xshash «qars-qars» etgan ovoz quloqqa chalina boshladi.

- Kimlar yong'oq qoqyapti, - dedi Nig'mat hushyor tortib.

- Do'lana bo'lishi ham mumkin! - unga qo'shimcha qildi Vakil.

Eng qizig'i, ovoz eshitilardi-yu, u qay tarafdan kelayotganini bilib bo'lmasdi. So'qmoqlar esa son-sanoqsiz, har tomonga taralib ketgandi.

Daraxt mevasini qoqayotganga o'xshash ovoz qayoqdan kelayotganini aniqlash uchun bir necha guruhga bo'lindik: Nig'mat bilan Zohid terakzorning chap tomoni, No'mon bilan Tal'at o'ng tomoniga qarab yuradigan bo'lishdi. Biz Solih bilan pastga qarab yuramiz. Muhammadjon, G'ulomjonlar baland xarsang tosh ustidan kuzatib turadigan bo'lishdi. Kim odam qorasini birinchi bo'lib ko'rsa, hushtak chalib ogohlantiradi deb kelishib oldik.

- Men nima qilay? - o'tirgan joyidan qimir etmay so'radi Vakil.

- Sen mana shu turishingda sigirga qorovullik qilasan, toki biron yoqqa ketib qolmasin, - dedim.

- Ketvorsachi, arqoni ham yo'q ekan!

- Shunga ham aqling yetmaydimi, galvars, dumidan mahkam ushlab ol. Ana ro'parangda turibdi! - hazillashdi Solih.

Hamma o'zi tanlagan so'qmoq bo'ylab ketdi.

Biz pastlikka enib borganimiz sari ovoz aniqroq eshitila boshladi. Nazarimda toqqa yong'oq hosilini yiqqani chiqqan o'rmon xo'jaligi xodimlari shu yaqin atrofda o'xshardilar.

Nihoyat, ancha pastlikda katta bog'ni eslatuvchi quyuq daraxtzor ko'zga tashlandi. Uning narigi etagida tasmaday yoyilib soy oqib yotardi.

Bir payt pildirab oldinda ketayotgan Solih nimagadir toyib, orqasi bilan yerga o'tirib qoldi.

- Inson zoti shu yerda ham befarosat-a! «Yozilgan» joyini qarang! - u ijirg'ancha o'rnidan turib, oyoqlarini o't-o'langa ishqalab tozalay boshladi, shimini qoqdi.

- Solih, tezda orqaga qaytamiz, - dedim pastlikdagi daraxtzor ichiga ishora qilib, - bu yerda inson zoti yo'qqa o'xshaydi. So'qmoq ustidagi sen toyib ketgan narsa maymoq polvonning «ishi». Bu so'qmoq uniki shekilli!

- Ayiq! - deb yubordi Solih biroz vahimaga tushib. Yana nimadir demoqchi edi, jim bo'l ishorasini qildim.

Ilon izi so'qmoq etagida xazonrezgi barglari to'kilib, sap-sarg'aygan mevalari ko'zga tashlanib turgan katta yovvoyi olma daraxtiga ikki oyog'ini ko'targanicha «osilib» olgan qo'ng'ir ayiq shoxlarni silkitar, yerga duv-duv to'kilayotgan mevalarni uning bolalari talashib-tortishib yerdi.

(Davomi bor).

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

WE LEARN ENGLISH

Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланади!

These are dedicated to the tenth anniversary of the Independence of the Republic of Uzbekistan!

Мустақил Ўзбекистонимизнинг қадрли фарзандлари! Биз барчангизни шарафли байрам - Мустақиллигимизнинг 10 йиллиги билан чин қалбдан табриклаймиз. Барча Ўзбекистон фуқаролари мустақил юртимизнинг келажакда буюк ва энг тараққий этган давлат бўлиши учун бор кучлари билан ҳаракат қилмоғи лозим!

Dear children and youth of our independent Uzbekistan! We congratulate you sincerely, from the deep of our heart with the tenth anniversary of the honourable Independence Day of our country. All citizens of Uzbekistan must do their best and work hard to make our country great and the most developed in the future!

МУСТАҚИЛЛИК - NDEPENDENCE

1 сентябрь - Ўзбекистон Республикасининг Мустақилликка эришган куни - **The first of September - is the Independence Day of the Republic of Uzbekistan**

Ўзбек халқининг энг севимли тантанаси - бу Мустақиллик байрами - **The most favourite celebration of Uzbek people is the Independence holiday**

Биз ҳар йили 1 сентябрни давлатимизнинг Мустақиллиги куни сифатида нишонлаймиз - **Every year we celebrate the first of September as the Independence Day of our country**

Мустақиллик - бебаҳо неъмат **Independence - is the priceless gift from God**

Ўзбекистон - тарихи ва келажаги буюк бўлган мустақил давлат - **Uzbekistan - is an independent country which has a great history and future.**

ВАҚТ - TIME

Азиз болажонлар! Бугунги дарсимизнинг асосий қисми кундалик ҳаётимизда энг кўп мурожаат қиладиган, суҳбатлашадиган мавзумиз - вақт ва соат ҳақидаги сўз ва жумлалардан иборат.

Қуйида берилган сўз ва жумлаларни ёд олинг!

бир соат - hour

ярим соат - half an hour

дақиқа (минут) - minute

бир неча дақиқа - a few minutes

сония (секунд) - second

ўттиз сония - thirty seconds

* * *

Савол билан мурожаат қилиш:

Соат (ҳозир) неча бўлди? - **What time is it? ёки What is the time?**

Қўл соатингизни менга кўрсатиб юборинг, илтимос - **Show me your watch, please**

Ҳозир соат беш бўлди - **It is five o'clock**

Мен соат етти яримда у ерда бўлишим керак - **I must be there at seven thirty ёки (half past seven)**

Ҳозир соат олтидан ўн дақиқа ўтди - **Ten (minutes) past after six**

Соат уч ярим бўлди - **It is half past three ёки half an hour to four**

Соат ўн беш дақиқа (чоракта) кам олти - **It is a quarter to six**

Соат нечада - **At what time?**

Қачон бошланади? - **When does it begin?**

Қачон тугайди? - **When does it end?**

Мен соат нечада келишим керак? - **At what time should I come?**

Бу қанча вақтни олади? - **How long will it take?**

Қанча вақт қолди? - **How much time is left?**

Кеч қолганим учун мени кечиринг - **I am sorry I am late**

аллақачон - **a long time ago ёки already**

яқиндагина - **recently**

кеч (қолмоқ) - **(to be) late**

барвақт (эрта, вақтли) - **early**

ҳозир - **now**

ҳозироқ - **right now**

айни вақтда - **at the moment**

тезда, тез орада - **soon**

тез-тез, кўпинча - **often**

камдан кам ҳолларда, баъзан, гоҳ-гоҳ -**seldom**

бир маротаба - **once**

икки маротаба - **twice**

уч маротаба - **thrice**

тўрт (беш) маротаба - **four (five) times**

ЙИЛ - YEAR

Шу йилда - **this year**

Ўтган йилда - **last year**

Келаси йил - **next year**

Бир йилдан сўнг - **in a year's time ёки one year later**

Мен 1991 йилда туғилганман - **I was born in nineteen-ninety one**

ЙИЛ ФАСЛЛАРИ - SEASONS OF YEAR

Баҳорда - **in the spring**

Ёзда - **in the summer**

Кузда - **in the autumn**

Қишда - **in the winter**

Шу ёзда - **this summer**

Ўтган баҳорда - **last spring**

Келаси қишда - **next winter**

Шоҳруҳбек КАРИМБЕКОВ тайёрлади.

BIZNING TO'GARAK

ISTIQLOL MAVZU BO'LDI

Odatdagidek «Istiqlol umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'ulotini boshladik. O'quvchilar navbatma - navbat o'z she'riy mashqlari, maqola va hikoyalaridan namunalar o'qishdi. Maqsadimiz - ularni diqqat bilan tinglab, yutuq va kamchiliklari haqida to'xtalish, fikr-mulohazalar bildirish edi. Aslida suhbatimiz uchun biror mavzu tanlash niyatimiz yo'q edi. Buni qarangki, suhbatimiz o'z-o'zidan Mustaqillikka borib taqaldi. Shunday ulug' va qutlug' kunda jonajon O'zbekistonimiz haqida gapirmay bo'ladimi axir?!

O'quvchilarning barchasi Istiqlolni qanday tasavvur qilishlari, uning sharofati, yoshlarga bergan imkonlari haqida to'lqinlanib gapirishdi. Kimdir she'r o'qidi, kimdir maqola. Yana birlari dilidagi faxr va iftixorini mo'yqalam orqali ifoda etishga intilibdi...

Tengdoshlaringiz ijodi bilan tanishib, ularning quvonchu shodliklariga sizlar ham sherik bo'ling.



O'ZBEKISTONIM

Mustaqil, buyuk yurt O'zbekistonim,
Ko'zlarni quvnatgan bog'u - bo'stonim.
Tuprog'ing ko'zimga aylay to'tiyo,
Kundan-kun yashnagay bu gulistonim.

Shukrlar bo'lsinki, mustaqil bo'ldik,
Chin dildan quvondik, shodlikka to'ldik,
Bizlar bu chamanning jajji g'unchasi,
Uning kelajagi, umidi bo'ldik.

Nilufar MO'MINOVA,
Toshkentdagi 272- maktabning
6- «V» sinf o'quvchisi.

VATANNING ZARRASI MUJGONIMIZDA

Vatan - qalbimizda, imonimizda,
Vatan - jismimizda, vijdonimizda.
Tuprog'in avaylab ko'zlarga bossak
Qolar bir zarrasi mujgonimizda.

Vatanni faxr etib, onamiz, deymiz,
Vatanga ardoqli bolamiz, deymiz.
Nogahon oh cheksak, oh chekar birga
Vatan, har bir tortgan afg'onimizda.

Vatan - bu Onadir oq sutin bergan
Ulg'aygin, kamol top, mag'rur o's degan.
Hatto tikan kirsa kiprikda tergan,
Vatan ko'ksimizda, jon - jonimizda.

Sen kulsang poyingga gullar otadi,
Nogahon yosh to'ksang asta artadi.
Vatan bolam deydi, unsiz aytadi,
Vatan tomirdagi qon-qonimizda.

Maqsadxon HAKIMOVA,
Chilonzor tumanidagi 181- maktabning
8- sinf o'quvchisi.

MUSTAQILLIK BUYUK NE'MAT

Mustaqillik deya o'tdi ne-ne bobolar,
Mustaqillik buyuk ne'mat, deydi momolar.
Shunday ekan, biz ham uning qadrin bilaylik,
Sodiq farzand bo'lib yurtga xizmat qilaylik.

Darhaqiqat, mustaqillik buyuk ne'mat. Tarixga nazar tashlasak, A.Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon kabi xalqimizning asl o'g'lonlari yurtimiz ozodligi uchun kurashganlar va bu yo'lda jonlarini ham fido qilganlar. Afsuski, yurtimizni ozod, obod ko'rish baxti ularga nasib etmadi...

1991 yil 1 sentyabrda O'zbekistonimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Shu kunlarda esa istiqlolimizning 10 yilligini keng nishonlayapmiz. Shu qisqa fursatda 100 yilga tatigulik ibratli ishlar qilindi, diyorimiz tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Yangi-yangi osmono'par binolar, qo'shma korxonalar, litseylar, kollejlar qad rostladi. Bizning Chilonzor tumanidagi Islom Usmonov nomli 200- litsey-maktabimiz ham shular jumlasidandir. Maktabimiz o'quvchilari bilimga chanqoq. Ustozlarimiz esa talabchan, ilmli murabbiylar. 2000-2001 o'quv yilida maktabimizda yoshlar tashkiloti tuzildi. Unda «Sport», «Sog'liqni saqlash», «Ichki ishlar», «Tashqi ishlar», «Ma'naviyat va ma'rifat» kabi bo'limlar mavjud bo'lib, uning saflariga maktabimizning yuqori sinf o'quvchilari tanlov asosida qabul qilindilar. 11-sinf o'quvchisi Iroda Odilovani bir ovozdan tashkilotimiz prezidenti etib tayinladik. O'quvchilar muammolarini hal etadigan tashkilot faoliyatidan hamma mamnun. Hatto direktorimiz O'.O'rolboyev ham tashkilotimiz ishlari bilan qiziqib, majlislarimizda qatnashib turadilar.

Maktabimizda ekologiya, iqtisod va huquq yo'nilishidagi sinflar mavjud bo'lib, ularga o'quvchilar 5-sinfdan imtihon asosida qabul qilinadilar.

Yozgi ta'tilda maktabimizni o'z qo'limiz bilan ta'mirdan chiqardik. Mana bugun chiroyli va ko'rkam maktabimiz bizlarni yana o'z bag'riga oldi. O'z navbatida biz ham yaratilayotgan shart-sharoitlarga yarasha o'qib-o'rganishga, ajdodlarimizga munosib farzandlar bo'lib kamol topishga va'da beramiz.

Nazokat UMAROVA,
Chilonzor tumanidagi 200- maktabning
9- sinf o'quvchisi.



SHODIYONA

Mening go'zal o'lkamda,
Shodiyona bo'ladi.
Mustaqil ona yurtim,
Bugun o'nga to'ladi.

Tan berdi butun jahon,
Yurtim istiqloliga.
Peshvoz chiqaylik biz ham,
Uning istiqboliga.

Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Yakkasaroy tumanidagi
118- maktabning
4- sinf o'quvchisi.

Toshkentdagi 273- litsey maktab o'quvchisi Dilmurodjon PO'LATOV chizgan surat.

YAXSHILIK YAXSHI

Yaxshilik qilgin doim,
Deydilar dadam, oyim.
Yaxshilik qilsang agar,
Qaytaradi Ollohim.
Yaxshi niyat qilib yur,
Yaxshi ishlar qilib tur.
Yomonlikdan bo'l yiroq,
Yaxshilarga bo'l o'rtoq.
Ota-onam so'zlarin,
Tugib qo'ydim dilimga.
Yaxshi inson bo'lib men,
Xizmat qilgum elimga.

Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi
169- maktabning
5- «G» sinf o'quvchisi.

QO'SHALOQ BAYRAM

Bugun oilamizda qo'shaloq bayram. Bir tomondan yurtimiz mustaqilligining 10 yilligini tantana qilsak, ikkinchi tomondan istiqlol tengdoshi bo'lmish singlim Sojidaning tug'ilgan kunini nishonlayapmiz. Sochlarini chiroyli tarab, yangi ko'ylak kiyib olgan singiljonimni hammamiz chin dildan qutladik. Uning lo'ppi yuzlari hayajondan lov-lov yonardi.

Oyijon, men Istiqlolning tengdoshi ekanman. Demak, men yuz yoshga kirganimda, u ham yuzga to'ladi-a?-dedi singlim kutilmaganda. Bu beg'ubor, murg'ak qalbda hozirdanoq Vatanga bo'lgan mehrni, iftixorni ko'rib xayratlandik. Garchand mustaqillikka osonlikcha erishmaganimizni, bu yo'lda qancha-qancha mashaqqatlaru qon to'kishlar bo'lganligini to'liq anglab yetmasada, Istiqlolimizdan g'ururlanyapti, uning umri boqiy, abadiy bo'lishini orzulayapti. Orzularing hamrohing bo'lsin, singiljonim!

Samixa MIRZAMUXAMEDOVA.

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR: Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI: Shuhrat AHMEDOV, Jamoliddin FOZILOV, Oynisa MUSURMONOVA, Komil YUSUPOV, Mukarrama MURODOVA, Sunnatilla QO'ZIYEV, Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiadorlik kompaniyasida 58.519 nusxada ofset usulida bosildi. Korxona manzili: "Buyuk Turon" ko'chasi, 41. Buyurtma № Г-2792 Gazetani Muhabbat MAHSUDOVA sahifaladi. Navbatchi: Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Tel: 144-62-34. 144-63-08